



UDK: 801.85:97.38

Nilufar XOLMATOVA,
O'qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston
E-mail: xolmatovanilufar04@gmail.com

PhD N.Madalov taqrizi asosida

ANEMONIMLAR ONOMASTIK BIRLIK SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada anemonimlarning onomastik birlik sifatida o'rni, ularning lingvistik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Onomastikaning rivojlanishi, ma'nosi, va onomastika o'rganganlik darajasi ochib berilgan. Anemonim tushunchasi, tabiat hodisalari hamda tabiiy ofatlar haqida tushuntirib berilgan. Shu bilan birga zilzila, to'fon, earthquake hamda flood anemonimlarining etimologik jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, nom, atqli otlar, onomastic birliklar, anemonim, tabiiy ofatlar, zilzila, to'fon, earthquake, flood.

АНЕМОНИМЫ КАК ОНОМАСТИЧЕСКАЯ ЕДИНИЦА

Аннотация

В данной статье рассматривается роль анемонимов как ономастических единиц, а также анализируются их лингвистические и семантические особенности. Освещаются этапы развития ономастики, её сущность и степень изученности. В статье даётся объяснение понятия анемонима, природных явлений и стихийных бедствий. Кроме того, раскрываются этимологические особенности анемонимов землетрясение, шторм, "earthquake" и "flood".

Ключевые слова: ономастика, имя, имена собственные, ономастические единицы, анемоним, природные катастрофы, землетрясение, шторм, "earthquake", "flood".

ANEMONYMS AS AN ONOMASTIC UNIT

Annotation

This article examines the role of anemonims as onomastic units and analyzes their linguistic and semantic features. It also discusses the development of onomastics, its essence, and the level of its study. The paper explains the concept of anemonims, natural phenomena, and natural disasters. In addition, the etymological aspects of the anemonims "zilzila," "to'fon," "earthquake," and "flood" are highlighted.

Keywords: onomastics, name, proper nouns, onomastic units, anemonim, natural disasters, earthquake, storm, flood.

Kirish. Onomastika tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda turli nom birliklari tizimli ravishda o'rganiladi. Atqli nomlar tilning nafaqat nominativ, balki madaniy va kognitiv qatlamlarini ham aks ettiradi. Tildagi atqli otlarni, ularning paydo bo'lishi, motivativ asoslarini, semantikasi, lisoniy strukturasi tilshunoslikning onomastika bo'limi tadqiq qiladi. Onomastika – grekcha onomastikós (ὄνομαστικός) so'zidan olingan bo'lib, nom berish san'ati ma'nosini bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi:

Ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llangan barcha atqli otlarning yig'indisi.

Atqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Eramizgacha 1-asrda yashagan Yuliy Polluks "Onomastika" nomli atqli otlariga bag'ishlangan lug'at yaratganligi hamda Stoiklar, jumladan Xrisipp atqli otlarni alohida til birligi, so'zlar guruhi deb klassifikatsiyalashtirganligi nomlarni uzoq yillar ilgari o'rganilganligini ifodalaydi. Lingvistik jihatdan nom (ot)larning tilshunoslikda xilma-xillikda o'rganilishi juda qadimgi davrlardan buyon mavjud. Bu davrga nazar soladigan bo'lsak, Yunon olimlari Aristotel, Demokrit, Geraklitlarning asarlarida ham atqli otlarning xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Aristotelning "Poetika" asarida otni nutq bo'laklaridan biri sifatida olib, unga "Ot murakkab, ma'no anglatuvchi, zamoni bildirmaydigan, qismlari o'z-o'zidan ma'no anglatmaydigan so'zdir"[2].

O'zbek tilshunos olimi Zokir Do'simov onomastika bu – tilshunoslikning muhim sohasi bo'lib, u kishilar, joylar, suv

obyektlari, tog'lar va boshqa nomlarning kelib chiqishi, ma'nosi, tuzilishi hamda tarixiy rivojlanishini o'rganadi. Yana shuni inobatga olish lozimki onomastika nafaqat tilni balki xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini va dunyoqarashini ham aks etadi. O'zbek onomastikasi ham o'sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri sanaladi. O'zbek onomastikasi (nomshunosligi) o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Tilshunoslikka yangi soha bo'lib kirgan onomastika bo'limi XX asrning 60-70-yillarida rivojlangan bo'lib, bir qancha olimlar tomonidan har bir atqli otni alohida ko'lamlar bilan o'rganish metodlari yo'lga qo'yildi[3].

Kolorado universiteti o'qituvchilaridan biri William Brightning ta'kidlashicha: "Onomastics is, in fact, the study of names. Such study is carried out as part of several larger fields, including linguistics, ethnography, folklore, philology, history, geography, philosophy, and literary scholarship. The word 'name' is often used to mean a term which can refer to anything, as when we say: 'Banana is the name of a fruit,' or 'Murder is the name of a crime.'"

Qozoq olimlari G. Bekmanova va L. Ourbylar o'zlarining qarashlarida: "Onomastics, a linguistic branch, specializes in the study of these unique designations for individuals or entities. Personal names are an important element of any language and culture, because no language and no culture can do without them," deb ta'kidlaydilar. Ya'ni, onomastika lingvistik soha bo'lib, shaxslar hamda mustaqil birliklarga qo'yilgan nomlarni o'rganadi. Shaxs otlari har bir

til va madaniyatning muhim elementi hisoblanadi, chunki hech bir madaniyat nomlarsiz shakllana olmaydi[4].

Ozarbayjon tilshunosi A. Gurbanov ozarbayjon tilidagi onomastik birliklar ("vohidlar") tarkibiga antroponimlar, etnonimlar, toponimlar, gidronimlar, zoonimlar, kosmonimlar va ktematonimlarni kiritadi. Umuman olganda, onomastika atoqli nomlarni o'rganish obyektlarining toifalariga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi:

antroponimiya – kishilarning atoqli nomlari (ism, familiya, ota ismi, laqab, taxalluslar);

toponimiya – geografik ob'ektlarning atoqli nomlari;

teonimiya – diniy tasavvurlardagi xudo, ma'bud va afsonaviy mavjudotlar nomlari;

zoonimiya – hayvonlarga qo'yiladigan atoqli nomlar va laqablar;

kosmonimiya – fazoviy obyektlar, galaktikalar va burjlarning nomlari;

astronimiya – osmon jismlari (sayyoralar va yulduzlar) nomlari;

anemonimlar – tabiiy hodisalarni ifodalovchi va nomlovchi onomastik birliklar majmui hisoblanadi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tilning leksik boyligi konkret lug'aviy birliklar (leksemalar)dan iborat bo'lganidek, tilning onomastik fondini leksika doirasida mujassamlashuvchi konkret atoqli otlar tashkil qiladi. Ushbu konkret nomlar onomastikada "til birliklari", "leksik birliklar", "nutq birliklari" deb yuritiluvchi terminlarga o'xshatma (taqlidiy) tarzda onomastik birliklar deb yuritilmoqda. Onomastik birlik deyilganda, aslida konkret atoqli ot ko'zda tutiladi.

Endi anemonimlarni o'rganib chiqadigan bo'lsak, tabiiy ofatlar nomini ifodalab keluvchi maxsus leksika "anemonimlar" nomi bilan guruhlantiriladi. Anemonim grekcha – "shamol" degani demakdir. Rus olimi "N.V.Podolskaya "Rus onomastik terminologiyasi lug'ati"da tabiiy hodisa va ofatlar nomini ifodalovchi "anemonim" atamasining bevosita yunoncha "anemos", ya'ni "shamol" so'zidan olinganini qayd etadi". Inson hayoti uchun vavf-xavotir soladigan tabiiy hodisalarning nomi – anemonimlardir. Anemonimlar tabiiy ofat nomlarini ifodalab kelib, ularning boshqa tabiat hodisalarining individualligini, o'ziga xos belgilariga qarab alohida qayt etilishini anglatadi va bu holat identifikatsiyalanish deb ataladi. "Bo'ron, to'fon, dovul singari shamolning tabiiy ofat sifatida mavjudligi – "anemonim" hisoblansa, ularning kuchiga qarab nomlanishi "meteoronim" sanaladi. Barcha tillarda shamol turlarini nomlashda ularning nomenklatura belgilari sifatida ko'proq kuchliligi, tezligi, barqarorligi va yo'nalishi e'tiborga olingani kuzatiladi. Tabiat hodisalarining turlari haqida ma'lumot olishga S.P.Xromov va L.I.Mamontovanning "Meteorologik lug'ati", I.Z.Prox va boshqalarning shamollar

S.P.Xromov va L.I.Mamontovanning "Meteorologik lug'at", I.Z.Prox va boshqalarning "Shamollar lug'ati" nomli lug'atida dunyo shamollarining 1405 nomi dunyoning 59 tilida 1845 ta yozuvda qayd etilgan. Va ushbu kitobda topilgan so'zlarning ko'pini fransuz tilidan olingan so'zlar, keying o'rinda esa rus va o'zbek tilidan olingan so'zlar tashkil etgan. Shamollar o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bir nechta xil nomlar bilan ko'rsatiladi. Birinchi guruhga shamollarning kuchiga ko'ra nomlanishi:

shiddatli, ko'rqinchli, kuchli esuvchi shamollar: bo'ron, to'fon, dovul;

kuchsiz, sokin esuvchi shamollar: shamol, shabada, yel, nasim.

Keying guruhga esa kuchining davomiyligiga ko'ra shamol nomlari:

a) kuchli shamol, qattiq shamol, shiddatli shamol, yalang'och shamol. Yo'nalishining doimiylikiga ko'ra shamol nomlari tog' shamoli, cho'l shamoli, daryo shamoli, dengiz shamoli, o'zgaruvchan shamol kabi shamollarni o'z ichiga oladi. Suvliklar (ariq, daryo, ummon) o'zan va qirg'oqlarida shamolning ikki turi ajralib turadi: to'lqin shamoli, oqim shamoli kabi. Umuman aytganda, kuch va tezlik, davomlilik, yo'nalish shamol nomlanishidagi asosiy parametrlardir. "Shamollarning yo'nalishlariga kelsak, ular ufqqa, Yer sayyorasining qutblariga, dunyo tomonlariga qarab belgilanadi. Bularga janubdan esgan shamol, dengizdan esgan shamol, shimol shamoli, qibladan esgan shamol, sharqdan esayotgan shamol, dengizdan esayotgan shamol kabi". Fransuz tilida G.S.Dorjjeva fransuz tilidagi anemonimlarning xalqaro onomastik terminologiyadagi o'rni haqida diqqat qaratgan bir vaqtda o'zbek olimasi "G.S.Dorjjeva fransuz anemonimlarining xalqaro onomastik terminologiyadagi o'rni haqida diqqat qaratgan"[6].

O'zbek olimalaridan D. Vaqqosova o'zbek tilidagi anemonimlarning semantik tahlilini, A. Aliqulov esa yel-yog'in bilan bog'liq lug'aviy-ma'noviy guruhning tizimi, qo'llanilishi va leksikografik talqini tadqiq etgan.

Tabiat hodisalarini tahlil qilishda avvalo ularning tarixiy-etimologik jihatlari ko'rib chiqiladi. "Zilzila" o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, uning asl etimologik shakli arabcha زلزلة (zilzala) yoki زلزال (zilzāl) so'zlariga borib taqaladi. Ushbu so'zlar "silkinish", "tebranish", "qimirlash", "yerning harakati" ma'nolarini anglatadi. Arab tilida bu leksema harakat va shovqin-suron bilan bog'liq kuchli tebranishni ifodalash uchun ishlatiladi[2].

O'zbek tilida esa "zilzila" yer osti qatlamlarining siljishi, sinishi yoki o'pirilishi natijasida yuzaga keladigan yer qimirlashi ma'nosida qo'llaniladi. Ingliz tilida esa "earthquake" so'zi qo'shma birlik bo'lib, qadimgi ingliz tili (Old English) ildizlariga borib taqaladi: earth – yer, tuproq, quruqlik ma'nolarini bildiradi, quake esa "titramoq", "silkinmoq" ma'nosidagi fe'ldan kelib chiqqan.

Etimologik jihatdan qaralganda, Sharq va islom madaniyatida zilzila tushunchasi ko'pincha ilohiy ogohlantirish, qo'rquv va inson oqibligining ifodasi sifatida talqin etiladi. Bunga misol sifatida Qur'oni karimdag "Az-Zalzala" surasini keltirish mumkin bo'lib, unda yerning kuchli silkinishi qiyomat belgilaridan biri sifatida tasvirlanadi. G'arb ilmiy an'analari esa bu hodisa tabiiy ofat, geologik jarayon va seysmik harakat sifatida izohlanadi. Demak, "zilzila" anemonimi ko'proq diniy, hissiy va ramziy konnotatsiyaga ega bo'lsa, "earthquake" atamasi ilmiy va neytral ma'noda qo'llaniladi[7].

"To'fon" anemonimi etimologik jihatdan arab tilidan o'zlashgan bo'lib, طوفان (tūfān) so'zi "kuchli suv toshqini", "katta toshqin" ma'nolarini anglatadi. Ushbu atama ko'pincha Nuh payg'ambar qissasi bilan bog'liq "To'foni Nuh" tushunchasi orqali keng diniy-madaniy mazmun kasb etgan va keyinchalik umumiy ma'noda kuchli bo'ron, dovul yoki suv toshqini ma'nolarida qo'llanila boshlagan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "to'fon" va "zilzila" leksemalari o'zbek va ingliz tillarida etimologik jihatdan turli manbalarga ega bo'lsa-da, ularning semantik maydoni o'zaro yaqin konseptual tushunchalarni ifodalaydi. "Zilzila" leksemasi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, "qattiq silkinish", "yerning larzaga kelishi" ma'nolarini anglatadi va diniy-madaniy konnotatsiyada "ilohiy ogohlantirish", "qiyomat belgisi", "inson oqibligi ifodasi" sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilidagi "earthquake" esa tabiiy-geologik hodisa sifatida neytral ilmiy ma'noda qo'llaniladi[8].

Shu jihatdan, "to'fon" va "zilzila" kabi anemonimlar nafaqat tabiat hodisalarini ifodalovchi birliklar, balki insonning madaniy tajribasi, dunyoqarashi va tarixiy tafakkurini aks ettiruvchi murakkab onomastik tizim

elementlari sifatida ham qaraladi. Ular til tizimida barqarorlashgan mustaqil leksik birliklar bo'lib, madaniy va lingvistik tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Xulosa va takliflar. Umuman aytganda, anemonimlar onomastik birliklar sifatida til tizimida alohida o'rin tutadi va tabiiy hodisalar nomlari bilan bir qatorda insonlarning madaniy, diniy va ijtimoiy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik qatlamni ifodalaydi. Ular nafaqat tabiiy jarayonlarni ifodalovchi leksik birliklar, balki turli xalqlarning tarixiy tajribasi, tasavvuri va mentalitetini o'zida mujassam etgan semantik va madaniy hodisalar sifatida ham qaraladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, anemonimlarning etimologik manbalari turli tillardan kelib chiqqan bo'lsa-da,

ular o'zbek tilida barqarorlashib, mustaqil onomastik birliklarga aylangan. Xususan, "zilzila" va "to'fon" kabi birliklar o'zbek tilida ko'proq diniy, falsafiy va ramziy ma'noga ega, ularning inglizcha ekvivalentlari esa asosan ilmiy va tabiiy-geologik nuqtai nazardan talqin qilinadi. Shunday qilib, anemonimlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, etnolingvistika va kognitiv lingvistika uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Ular so'zlovchining dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va madaniy tafakkurini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Umuman olganda, anemonimlar onomastik tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyish etadi va ularni chuqur o'rganish lingvistik tadqiqotlarning zamonaviy sohasidir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent, O'zbekiston, 2024.
2. G.Bekmanova . L.Orunby Journal of electronical system. – Kazakistan, 2024.
3. John H. Walton - Ancient Near eastern thought and The Old Testament. – New York, 2017.
4. William Bright . Language and study – Calarado, 2003.
5. Xamidova M.H. Fransuz hamda o'zbek tillarida metetologik leksika tizimi va tarkib. – Buxoro. 2024.
6. Доржиева Г.С. Французские анемоны в международной ономастической терминологии. (Топонимические чтения. 2). – Улан-Удэ, 2017.
7. Доржиева Г.С., Языкова А.А. Мотивационные значения байкальских анемонов //Вестник Бурятского государственного университета. – 2016.
8. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Н. В. Подольская. – Москва: Изд-во «Наука», 1978.